TIL TA'LIMIDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH

Abdishukur Musayevich Shofqorov
Filologiya fanlari nomzodi, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
Chirchiq davlat pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Maqolada zamonaviy o‘qitish usullaridan, xususan grafik organayzerlardan foydalanish va uning samarasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: morfema, yetakchi morfema, affiksal morfema, ta’lim texnologiyasi, metod, grafik organayzer.

USING GRAPHIC ORGANIZERS IN LANGUAGE TEACHING

Abdishukur Musaevich Shofkorov
Candidat of Pilological Sciences, Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature, Chirchik State Pedagogical Institute

ABSTRACT

The article discusses the use and effectiveness of modern teaching methods, especially graphic organizers.

Keywords: morpheme, leading morpheme, affiksal morpheme, educational technology, method, graphic organizer.

KIRISH

Ta’limda zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, o‘qituvchi muayyan mavzuni o‘qitishda uning oson, to‘liq o‘zlashtirilishiga imkon beruvchi didaktik vositalar, texnologiyalar, metod turlaridan samarali foydalangan taqdirdagina dars samaradorligiga erishadi. Shuningdek, o‘quv materiallari, mavzulari o‘zi aloqador bo‘lgan fanning eng so‘nggi yutuqlarini o‘zida mujassam qilishi nihoyatda zarur. Buning uchun o‘qituvchidan ta’limga yangicha yondashish, rejalashtirish ishlarini olib borish, innovatsiyalarni tatbiq etish talab qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolada til ta’limida, xususan, morfemika bo‘limini o‘rganishda grafik organayzerlardan foydalanish masalasini yoritish maqsad qilib qo‘yilgan.

Morfemika – tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, u so‘zning ma’noli qismlari haqida ta’limot beradi. So‘zning ma’noli qismlari morfema deb yuritiladi. Masalan, *talabalarning* so‘zi talaba-lar-ning kabi morfemalardan, *o‘qishdan* so‘zi esa o‘qi-sh-dan morfemalaridan tuzilgan.

Bu so‘zlardagi har bir morfema shu so‘zlar to‘qimasida o‘ziga xos ma’no va vazifa bilan qatnashmoqda. Misollardagi morfemalar tarkiban yana bo‘linadigan bo‘lsa, ularning ma’nosi yo‘qoladi. Demak, morfema so‘zning bo‘linmas, eng kichik ma’noli qismidir. So‘z tarkibidagi eng kichik ma’noli qism – morfema tilshunoslikda turli qirralariga ko‘ra tasniflanadi.

Morfemika – tilning morfema va morflari tarkibi haqida ta’lim berishdan tashqari, morfemaning ma’no ifodalash zanjiridagi xususiyati: yetakchi yoki affiksal morfemaligi (lug’aviy ma’no yoki grammatik ma’no tashishi), affiksal morfemalarning vazifasiga ko‘ra turlari: so‘z yasovchi yoki forma yasovchi affiksal morfemalarga bo‘linishi, shuningdek so‘zning morfem strukturasida bo‘ladigan ayrim o‘zgarishlar haqida ta’limot beruvchi soha hamdir.

Shuni ham aytish o‘rinliki, so‘zda ana shunday minimal ma’noli qismlar bo‘lishi va ular morfema deb atalishi haqidagi ilk ta’limotni tilshunoslik faniga Qozon tilshunoslik maktabining asoschisi Boduen de Kurtene olib kirdi.

Biz quyida morfemika bo‘limini o‘rganishda grafik organayzerlardan foydalanish yuzasidan fikr yuritamiz. Ma’lumki, grafik tashkil etuvchilarga “Insert” usuli, “Toifali jadval”, “Tushunchalar jadvali” “Konseptual jadval”, “BBB” usuli, “Klaster” sxemasi, “T-jadvali”, “Venn diagrammasi”, “SWOT-tahlil jadvali”, sxema va diagrammalar: “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Baliq skeleti” kabilar kiradi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Ushbu grafik tashkil etuvchilardan morfemika bo‘limini o‘rganishda quyidagilardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

BBB texnologiyasi

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Asos va qo‘shimchaning farqini, so‘z yasovchilarni, lug‘aviy va sintaktik shakl yasovchilarni, old qo‘shimchalarni, so‘z tarkibining ikki qismga bo‘linishini	So‘z, morfema, morf, allamorflar va ularning o‘zaro munosabati (chegarasi) muammolarini	FYAMlarning umumkategorial va kategorial belgi-xusu- siyatlariga ko‘ra 2 turga bo‘linishi, affiksal morfemalarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra sistemalanishi muammolari, soddalashuv, qayta bo‘linish hodisalarini

“TUSHUNCHALAR TAHLILI”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
Yetakchi morfema	so‘z tarkibining doimiy elementi bo‘lib, lug‘aviy ma’no tashiydigan hamda so‘z yasash uchun ham, forma yasash uchun ham asos bo‘la oladigan morfema.	
Affiksal morfema	mustaqil olinganda lug‘aviy ma’no anglatmaydigan, so’zning leksik yoki grammatik ma’nosini hosil qilishga xizmat qiladigan morfema.	
So‘z yasovchi affiksal morfema	yangi so‘z hosil qiladigan, so‘zning leksik ma’nosini hosil qilishda ishtirok etadigan morfema.	
Forma yasovchi affiksal morfema	so‘zning grammatik ma’no ifodalovchi yoki biror grammatik vazifaga xoslangan shaklini yasashda ishtirok etadigan morfema.	
Kategorial forma yasovchi affiksal morfema	ma’lum so‘z turkumining biror grammatik kategoriyasiga xos forma yasaydi.	
Nokategorial forma yasovchi affiksal morfemalar	biror grammatik kategoriyaga qarashli bo‘lmagan ma’noni ifodalovchi, ma’lum sintaktik vazifa bajarishga xoslangan so‘z formasini hosil qiluvchi affiksal morfemalar.	
Affiksoidlar	yetakchi morfemaning affiksal morfemaga aylanishi. Masalan, ishxona, choyxona, bosmaxona, yotoqxona so‘zlaridagi "xona" elementi lug’aviy ma’nosida emas, o’rin-joy yasovchi affiksal morfema vazifasida kelmoqda.	
Sodda affikslar	birgina ma’noli qismdan iborat bo‘lgan morfema (-chi, -zor, -dosh, -cha, -roq, -dan kabi).	
Murakkab affikslar	birdan ortiq affiksal morfemalarning birikuvidan hosil bo‘lgan morfema (-lik,-garchilik, -moqda, -ganda kabi).	
Soddalashish (oprosheniye)	bir paytlar qismlarga ajraladigan so‘zlarning davrlar o’tishi bilan ajratilmaydigan holga kelib qolishidir M: ichak (ich-ak, kichraytish), yurak (yur-ak, ot yasovchi), bo’yin (bo’y-in, kichraytish), bugun, sakson, to’qson va h.k.	
Qayta bo‘linish	ilgari bir xil bo‘linishga ega bo’lgan so‘z keyinchalik yoki hozir boshqacharoq bo‘linish shakliga ega bo‘ladi: ular – ul-ar - u-lar, bitik – biti-k - bit-ik kabi.	

TOIFALASH JADVALI

Yetakchi morfema		**Ko‘makchi morfema**	
Asosning affikslar bilan muntazam qo‘llanishi yoki affiksal morfemalarsiz, o‘zi mustaqil ishlatila olishiga ko‘ra (bu hodisaning asosan o‘zlashma so‘zlarga xosligi e’tiborga olinadi):		Asosning qaysi tomonidan qo‘shilish tartibiga ko‘ra:	
Erkin asos	**Bog‘li asos**	**Old qo‘shimchalar**	**Asosdan keyin qo‘shiluvchi qo‘shimchalar**
Nutqda faqat (har doim) affikslar bilan ishlatiladigan asoslar	O‘zi mustaqil ishlatilishi mumkin bo'lgan asoslar	Asosdan oldin qo‘shiluvchi qo‘shimchalar	Asosdan so‘ng qo‘shiluvchi affikslar
fash-izm	*vagon-li*	*ba-ma’ni*	*aql-li*
fash-ist	*mashina-soz*	*ser-hosil*	*toza-la*
agit-atsiya	*sport-chi*	*bar-kamol*	*gul-don*
agit-ator	*traktor-chi*	*no-qobil*	*ista-k*

FSMU texnologiyasi
Jadvalni to‘ldiring
1-guruh

Savol	Hozirgi o‘zbek adabiy tilida so‘z tarkibi ***sinxron*** va ***diaxron*** aspektga ko’‘ra turlicha bo‘linishga ega qanday so‘zlarni bilasiz va tilshunoslikda bu hodisa nima deyiladi?
(**F**) Fikringizni bayon eting	***Qishloq, sakson, to‘qson, yuksak, yuksal, o‘dag‘ayla, ovloq*** kabilar
(**S**) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	So‘zlarning morfem tahlilida tarixiylik va hozirgi holat masalasi aniq chegaralanishi zarur.
(**M**) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	Chunki qismlarga ajraladigan ba’zi so‘zlar davrlar o‘tishi bilan ajratilmaydigan holga kelib qoladi.
(**U**) Fikringizni umumlashtiring	Bu hodisa tilshunoslikda **soddalashish** (**oproshenie**) deyiladi.

2-guruh

Savol	**O‘zbek tilida o‘zlashmalar tarkibidagi asoslar necha xil?**
(**F**) Fikringizni bayon eting	**2 xil**: **bog’li** va **erkin**.
(**S**) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	Chunki **bog‘li** asoslar tilimizda o‘ziga qo‘shilgan affikssiz qo‘llanmaydi, **erkin** asoslar esa o‘zi erkin yoki turli boshqa qo‘shimchalar bilan qo‘llana oladi.
(**M**) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	*fashizm, ateist, shar’iy, nokas, badaviy, salbiy, ijobiy, sun’iy, madaniy* so’zlari **bog‘li asosli** so‘zlar; *traktorchi, vagonsoz, ommaviy, qabilaviy, ruhiy, tarbiyaviy* so‘zlari **erkin** asosli so‘zlardir.

(**U**) Fikringizni umumlashtiring	So‘zning forma yasalishi strukturasida **shartli** va **erkin** asos tushunchasi haqida gapirilganda, bu hodisaning asosan **o‘zlashma** so‘zlarga xosligi e’tiborga olinadi.

XULOSA

Maqolada nazariy ta’limning amaliy jarayonlarini o‘rganishni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish va modernizatsiya qilish vazifasini oldimizga maqsad qilib qo‘ygan edik. Ish davomida bunga erisha oldik, deb hisoblayman. Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak kafolatli natijalarga erishishdir. Bu talabni yuzaga keltirishda interfaol metodlar to‘la ishonchli vosita bo‘la oladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir katta tajriba to‘plangan bo‘lib, u tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda.

Xulosalarning ta’lim va tarbiya jarayonida pedagoglar tomonidan o‘rinli, maqsadli, samarali qo‘llanilishi ta’lim oluvchida muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g‘oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Abduazizov, A. (1994). *O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi.* O‘qituvchi.
2. Hojiyev A. *Hozirgi o‘zbek tilida forma yasalishi.* Fan.
3. Khodjamkulov, U. N., Makhmudov, K. S., & Shofkorov, A. M. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, *24*(05).
4. Tojiyev, Yo. (1992). *O‘zbek tili morfemikasi.* O‘qituvchi.
5. Шофкоров, А. М. ПОВТОРЯЮЩИЕСЯ СЛОВА И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ВЫРАЖЕНИИ.
6. Шофқоров, А. М., & Ходжамқулов, У. Н. (2019). Bor” ning inkori va “Yo‘q” ning tasdig‘i haqida mulohazalar. *Til va adabiyot ta’limi, (2)*, 25-26.
7. Шофқоров, А. М., & Ходжамқулов, У. Н. (2020). O ‘zbek tilida inkor shakllarining ma’no tovlanishlari. *Texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek va xorijiy tillarni o‘qitishning dolzarb masalalari*, 38-39.